

EMITENTNING NOMI								
1.	To'liq:		«KAPITALBANK» Aksiyadorlik Tijorat Banki					
	Qisqartirilgan:		«KAPITALBANK» ATB					
	Birja tikerining nomi: *		KPB					
ALOQA MA'LUMOTLARI								
2.	Joylashgan yeri:		Toshkent sh., Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy					
	Pochta manzili:		100047, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy					
	Elektron pochta manzili: *		info@kapitalbank.uz					
	Rasmiy veb-sayti: *		www.kapitalbank.uz					
AHAMIYATLI FAKT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR								
Ahamiyatli faktning raqami:		06						
Ahamiyatli faktning nomi:		Emitentning oliy boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar						
Umumiy yig'ilish turi:		Navbatdan tashqari						
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan sana:		24.12.2021						
Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		24.12.2021						
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:		Toshkent sh., Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 1-uy						
Umumiy yig'ilishning kvorumi:		99,99%						
№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar		Ovoz berish natijalari					
			rozi		qarshi		betaraflar	
			%	soni	%	soni	%	soni
1	Bankning o'ziga tegishli oddiy ovoz beruvchi aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olish (xarid qilish) to'g'risidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida		100	355 837 336				
Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:								

- 1** 1.1. Quyidagi ahamiyatli shartlar asosida potensial investorga qayta sotish uchun bankning o'z oddiy ovoz beruvchi aksiyalarining bir qismini quyidagi ahamiyatli shartlarda qaytarib sotib olish (xarid qilish):
- 1) bank tomonidan qaytarib sotib olinayotgan (ega bo'linayotgan) aksiyalarning turi - **oddiy ovoz beruvchi aksiyalar;**
 - 2) bitta aksiyaning nominal qiymati – **950 so‘m;**
 - 3) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish (ega bo'lish) va qayta sotish qiymati - **bitim tuzilgunga qadar Bank Kuzatuv kengashining alohida qarorlari bilan belgilanadigan bozor qiymati bo'yicha;**
 - 4) bank tomonidan qaytarib sotib olinayotgan (ega bo'linayotgan) aksiyalarning umumiy soni **166 252 734 dona;**
 - 5) bank tomonidan qaytarib sotib olinayotgan (ega bo'linayotgan) aksiyalarning ulushi - **bank ustav kapitalining 42 foizigacha (bu bankning ovoz beruvchi aksiyalarining 46,72 foizini tashkil qiladi);**
 - 6) bank aksiyadorlarining o'z aksiyalarini bankka sotish to'g'risida ariza berish muddati - **bankning o'z aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olish (xarid qilish) to'g'risida ommaviy axborot vositalariga xabarnoma taqdim etilgan kundan boshlab 10 kun ichida;**
 - 7) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish muddatining boshlanishi - **ommaviy axborot vositalariga bank aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olishi (xarid qilishi) to'g'risida xabarnoma taqdim etilgandan so'ng 11-kundan boshlab;**
 - 8) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish muddatining tugashi - **bankning o'z aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olish (xarid qilish) to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 yil ichida;**
 - 9) har bir bitimning qaytarib sotib olish va qayta sotish maksimal hajmi – **bankning ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak;**
 - 10) to'lov muddati va shakli – **aksiyalar uchun to'lov uyushgan birja bozorida, birja qoidalariga muvofiq tuzilgan bitimlar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi;**
 - 11) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish (xarid qilish) tartibi – **O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli ruxsati asosida belgilangan cheklovlar doirasida bir necha transhlarda amalga oshiriladi.**

Ijro etuvchi organ rahbari :

-

Mirzayev Alisher Anvarovich

Bosh hisobchi :

-

Allayorova Dilrabo Normamatovna

Veb-saytda ma'lumotlarni joylashtirgan vakolatli shaxs:

-

Pak Igor Timofeyevich